



UZBEKISTAN'S MUTUAL POLITICAL TRADE WITH KYRGYZSTAN AND TAJIKISTAN IS ON THE PATH OF ECONOMIC, HUMANITARIAN COOPERATION

Bektemir Qudratov

Doctoral student

"The Newest History Center" at the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: kudratovbektemir12@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: Central Asia, geopolitics, economic, social, political, military, Shavkat Mirziyoyev, international organizations, trend, humanitarian.

Received: 28.10.24

Accepted: 30.10.24

Published: 01.11.24

Abstract: This article helps to understand the relations between Kyrgyzstan and Tajikistan and Uzbekistan. The article discusses the present and prospects of mutual political, trade, economic, humanitarian cooperation between the Central Asian countries. The article looks at the history of mutual political, trade, economic, humanitarian beneficial cooperation relations between independent Uzbekistan and Kyrgyzstan and Tajikistan, as well as the modern context, globalization and regional cooperation, problems.

O‘ZBEKISTONNING QIRG‘IZISTON VA TOJIKISTON BILAN O‘ZARO SIYOSIY SAVDO IQTISODIY GUMANITAR MANFAATLI HAMKORLIK YO‘LIDA

Bektemir Qudratov

tayanch doktorant

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi qoshidagi “Eng yangi tarix markazi”

Toshkent, O‘zbekiston

E-mail: qudratovbektemir12@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Markaziy Osiyo, geosiyosat, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, harbiy, Shavkat Mirziyoyev, Xalqaro tashkilotlar, tendensiya, gumanitar.

Annotatsiya: Ushbu maqola Qirg‘iziston va Tojikiston va O‘zbekiston munosabatlarini tushunishga yordam beradi. Maqolada Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi o‘zaro siyosiy savdo iqtisodiy gumanitar manfaatli hamkorlik munosabatlarning buguni va istiqbollari haqida fikr yuritiladi. Maqolada mustaqil O‘zbekistonning Qirg‘iziston va Tojikiston bilan o‘zaro siyosiy savdo iqtisodiy

gumanitar manfaatli hamkorlik munosabatlari tarixiga nazar va zamonaviy kontekst, globalizatsiya va mintaqaviy hamkorlik, muammolari havola etilgan.

ВЗАИМНАЯ ПОЛИТИЧЕСКАЯ ТОРГОВЛЯ УЗБЕКИСТАНА С КЫРГЫЗСТАНОМ И ТАДЖИКИСТАНОМ ИДЕТ ПО ПУТИ ЭКОНОМИЧЕСКОГО, ГУМАНИТАРНОГО СОТРУДНИЧЕСТВА

Бектемир Кудратов

Докторант

«Центр новейшей истории» при Академии наук Республики Узбекистан

Ташкент, Узбекистан

E-mail: kudratovbektemir12@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Центральная Азия, геополитика, экономическая, социальная, политическая, военная, Шавкат Мирзиёев, международные организации, тренд, гуманитарный.

Аннотация: Эта статья помогает понять отношения между Кыргызстаном, Таджикистаном и Узбекистаном. В статье размышляется о настоящем и перспективах взаимного политического, торгово-экономического, гуманитарно-выгодного сотрудничества между странами Центральной Азии. В статье рассматривается история взаимовыгодного политического, торгово-экономического, гуманитарно-выгодного сотрудничества независимого Узбекистана с Кыргызстаном и Таджикистаном, а также современный контекст, проблемы глобализации и регионального сотрудничества.

Kirish. O‘zbekiston xalqaro munosabatlarning teng huquqli subyekti sifatida, mintaq va global darajada faol tashqi siyosatni yo‘lga qo‘yib, xorijiy hamkorlar bilan o‘zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirmoqda. Bunday izchil, aniq va konstruktiv tashqi siyosatni xalqaro ekspertlar va kuzatuvchilar ham e’tirof etildi.

O‘zbekiston tashqi siyosiy faoliyatining asosiy vazifalaridan biri – o‘z hududi atrofida tinchlik, barqarorlik va xavfsizlik muhitini shakllantirish hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, Prezident Shavkat Mirziyoyev qo‘shnilarimiz – Markaziy Osiyo davlatlari bilan do‘stona, yaqin qo‘shnichilik va o‘zaro manfaatli aloqalarni rivojlantirish va mustahkamlashni asosiy ustuvor tashqi siyosiy yo‘nalish sifatida belgilab berdi.

O‘zbekiston tashqi siyosatining yetakchi yo‘nalishlaridan biri Markaziy Osiyodagi yangi mustaqil davlatlar – Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston bilan do‘stlik, hamkorlik aloqalarini mustahkamlashga qaratilgan. Mintaqadagi beshta davlat o‘rtasida o‘xshash jihatlar ko‘p. Tariximiz, madaniyatimiz, tilimiz, dinimizning birligi, tomirlarimizning tutashib ketgani bu mamlakatlar xalqlarini bir-biriga yanada yaqinlashtirishning zaminidir.

Lekin bir narsani takidlab o'tish kerakki hozirgi notinch zamonda kim do'st kim dushmanligini ajratish qiyin bo'lgan bir davrda o'zigga hamfikir va hammaslak topish undanda qiyin. Hayotda ham xuddi shunday aka ukalar opa singillar o'rtasida nizo chiqishi mumkin lekin bunday nizolar tezda hal bo'ladi va yuvilib ketadi. Jigarlar o'rtasida ham xuddi mana shunday ulardan birining qayg'usiga boshqasi sherik bo'ladi.

Davlatlar o'rtasida ham xuddi shunday progress yotadi, albatta tariximiz tilimiz, dinimiz bir bo'lgan davlatlar xususan qo'shnilarimiz bilan birlashsak bizga hech bir davlat o'ylab muomala qiladigan, manfaatlarimizni inobatga oladigan bo'ladi.

Darhaqiqat biz turkiy millatimiz bizning do'stlarimiz ham yonimizda tarixan bir oilaga mansubmiz bizni birlashtirib turuvchi rishtalar juda ko'p.

Shubhasiz, o'zaro strategik sheriklik va ittifoqchilikka asoslangan hamkorlikning yangi davri SH.Mirziyoyevning prezidentlik davri bilan bog'liq bo'lmoqda. O'zbekistonda 2016 yildan buyon amalga oshirilayotgan ochiq, amaliy va pragmatik tashqi siyosati davlatlararo o'zaro manfaatli aloqalar va munosabatlarni strategik sheriklik va ittifoqchilikni yangi darajasiga olib chiqishga chiqish va rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlarni, mexanizmlarni, vositalarni ochdi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). “Markaziy Osiyoda geosiyosat” Sodiq Safoyev o'zbekiston Respublikasining sobiq tashqi ishlar vaziri asari hozirgi yosh avlod uchun juda muhim manba hisoblanadi. Bu kitobda bir qancha savollarga javob berilgan. Xususan; Markaziy Osiyo chegarasi deganda uning hozirgi paytda kengayib borayotganligini takidlaydi yani bu mintaqaga beshta respublikadan tashqari Afg'onistonni kiritish mumkin deb ta'kidlaydilar.

Markaziy Osiyoga nisbatan yirik davlatlarning geosiyosiy manfaatlariga Markaziy Osiyo mintaqasiga qo'shni davlatlar sanab o'tiladi. Unga ko'ra Afg'oniston Hindiston subkontinentiga taalluqli bo'lib hech qachon markaziy osiyoga xavf solmagan deyiladi, Xitoy esa savdo iqtisodiy munosabatlardan ortiq emas deb baholanadi, Rossiyaga nisbatan “silliq” qilib Rossiya va Markaziy Osiyoni bog'lovchi temiryo'llar bo'yicha munosabatlar davom etayotganligini takidlaydilar.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). O'zbekistonning Qirg'iziston bilan ikki tomonlama hamkorligi O'zbekiston Respublikasi bilan Qirg'iziston Respublikasi o'rtasida do'stlik, hamkorlik va o'zaro yordam haqida shartnoma asosida yo'lga qo'yildi va rivojlantirilmoqda. Bu shartnoma Toshkentda 1992-yil Qirg'iziston Prezidenti Askar Akayevning O'zbekistonga rasmiy davlat tashrifi paytida imzolangan edi. Mamlakatimiz Birinchi Prezidenti Islom Karimovning 1993-yil Qirg'izistonga qilgan rasmiy tashrifi paytida O'sh shahrida O'zbekiston va Qirg'iziston o'rtasida 1994–2000-yillarga mo'ljallangan iqtisodiy integratsiyani rivojlantirish to'g'risida Bayonot imzolandi. Bu hujjat ikkala respublikada ishlab chiqilgan milliy dasturlarni muvofiqlashtirishga, xomashyo va ishchi kuchidan, ilmiy salohiyatidan unumli

foydalanishga qaratilgan edi. 1994-yil yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qirg‘izistonda bo‘ldi. Rasmiy tashrif yakunida ikki davlat Prezidentlari tovarlar, xizmatlar, sarmoya, ishchi kuchlarining erkin yurishini, o‘zaro kelishilgan kredit, hisob-kitob, byudjet, soliq, narx, bojxona va valyuta siyosatini belgilovchi shartnomani imzoladi.

2010-yil iyulda Qirg‘izistonda ekstremistik kuchlar tomonidan uyushtirilgan millatlararo qonli voqealar sharoitida O‘zbekiston 100 mingdan ortiq qochqinlarni o‘z hududiga qabul qildi. 2017-yil O‘zbekiston va Qirg‘iziston munosabatlarida yangi sahifa ochildi. Shu yil sentabr oyida Qirg‘iziston Prezidenti Almazbek Atambayev taklifiga binoan Prezident Shavkat Mirziyoyev Bishkekda bo‘ldi. O‘zbekiston va Qirg‘iziston prezidentlari o‘z ichiga 85 foiz masofani qamrab olgan chegara to‘g‘risidagi bitimni imzoladi.

Shu munosabat bilan aholining o‘tib qaytishi uchun ikki davlat o‘rtasidagi 7 yil davomida yopib qo‘yilgan chegara postlar ochildi. 2017-yil dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Qirg‘iziston Respublikasining yangi saylangan Prezidenti Sooranbay Jeenbekov rasmiy tashrif bilan mamlakatimizga keldi. Iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy sohalarida hamkorlikka doir qator hujjatlar qabul qilindi.

2023 yil O‘zbekiston va Qirg‘iziston uchun juda muhim yil bo‘ldi, chunki ikki davlat o‘rtasida chegara masalasi hal bo‘ldi. Ikki davlat o‘tgan gina-kudratlarni unutib kibr va g‘ururni bir chetga surib, davlat chegarasi bo‘yicha murosaga kelishdi. Qirg‘iziston bizning muhim strategik hamkorimiz, eng yaqin qo‘shnimiz va vaqt bilan sinalgan do‘stimizdir, — dedi Shavkat Mirziyoev. Qirg‘iziston prezidenti Sadir Japarov Shavkat Mirziyoyev hozirgi vaqtda O‘zbekiston prezidenti ekanligi eng muhimi ekanligini takidhladi.

Ota-bobolarimiz bir ro‘zg‘orning boshqalardan ayro baxtiyor bo‘la olmasligini yaxshi bilgan. Kuchning birlikda ekanligini ta’kidlashlarining ma’nosi ham shunda.

Mamlakatimizning keyingi yillarda qo‘shni davlatlar bilan do‘stona aloqalarni yangi bosqichga olib chiqishga intilayotgani zamirida ham ana shu ko‘p yillik qadriyat mujassam.

Tojikistonda 1992–1997-yillarda davom etgan birodarkushlik urushi davlatning iqtisodiy taraqqiyotiga salbiy ta’sir etdi, uning qo‘shni mamlakatlar, jumladan, O‘zbekiston bilan hamkorligiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatdi.

1997-yilda Moskvada Tojikistonning rasmiy hokimiyati bilan muxolifat kuchlar o‘rtasida tuzilgan milliy murosa haqidagi shartnomaga erishilgach, qo‘shni mamlakatlar bilan aloqalari yana tiklandi.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning taklifiga binoan 1998-yil yanvarda Tojikiston Prezidenti Imomali Rahmon O‘zbekistonga amaliy tashrif bilan keldi. Ikki mamlakat rahbarlari tashrif yakunlari bo‘yicha qo‘shma axborot imzoladi. Arab-musulmon mamlakatlari va AQSH sammiti. 2017-yil. Ar-Riyod Ikki mamlakat hukumati o‘rtasida

yuk tashish hamda gaz yetkazib berish, Tojikistonning qarzi bo'yicha o'zaro hisob-kitob to'g'risidagi bitimlar ham imzolandi. O'zbekiston Tojikiston hududidan o'tgan transport kommunikatsiyalaridan foydalanib kelmoqda. O'zbekiston bilan Tojikiston o'rtasida tovar ayirboshlash hajmi ham yil sayin ortib bordi.

2017-yil O'zbekiston va Tojikiston munosabatlarida ham yangi sahifa ochildi. Shu yil may oyida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Saudiya Arabistoni poytaxti Ar-Riyod shahrida bo'lib o'tgan AQSH va arab-musulmon davlatlari sammitida ishtiroki doirasida Tojikiston Prezidenti Imomali Rahmon bilan ilk bor uchrashdi. Uchrashuv chog'ida ko'plab manfaatli kelishuvlarga erishildi. 2017-yilning aprelida 25 yillik tanaffusdan so'ng Dushanbe va Toshkent o'rtasidagi aviaqatnov yana tiklandi.

2024 yil ikki qo'shni davlat uchun barakali yil bo'ldi 18 aprel kuni Dushanbe shaxrida ittifoqchilik munosabatlari o'rnatildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Markaziy Osiyo Alloh tomonidan inom etilgan juda katta boy tabiiy zahiralarga ega lekin dunyo okeanlariga chiqish chegaralangan shunday bir sharoitda qo'shni davlatlar birlashib o'zaro boj tariflarini olib tashlagan holda iqtisodiy siyosat yuritsa bundan faqat va faqat foyda kelgan bo'lar edi. Shunday ekan tezda amaliy qadamlar tashlash vaqti keldi deb oylayman.

Xulosa va takliflar (Conclusion / Recommendations). o'zbekiston Qirgiziston va Tojikiston bilan eng muhim masalalar yani chegara masalasini deyarli hal qildi. Bir qancha chegara punktlari qayta ochildi vizasiz rejimlar kunlari uzaytirildi. Keyingi qadam endi chegara bojarini butunlay olib tashlash bu keyingiqadamlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bu "Markaziy Osiyo Ittifoqi" xuddi Evropa Ittifoqi kabi.

ADABIYOTLAR

1. Shavkat Mirziyoyev ishtirokida Termiz shahrida xalq deputatlari Surxondaryo viloyati kengashi sessiyasida so'zlagan nutqidan: Xalq so'zi gazetasi 14.03.23y
2. Safojev S -Markaziy Osiyodagi geosiyosat. - Toshkent-2005
3. Jo'rayev S-Xalqaro munosabatlar va xalqaro tashkilotlar.-Toshkent-2008
4. M.Xayrullayev. O'zbek diplomatiyasi tarixidan.-Toshkent-2003
5. T.Tursunmuratov. Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizlikni taminlashda ilmiy texnologik salohiyat omili. Toshkent-2016-yil
6. X.T Odilqoriyev. Siyosatshunoslik. "O'qituvchi" Toshkent 2008-yil
7. M.Qirgizboyev. Siyosatshunoslik. "Yangi asr avlodi" Toshkent- 2013 yil
8. R.Farmonov. O'zbekiston geosiyosati. Toshkent – 2013